



O'zbekistonni kashf etish

Rahmat BOBOJON,

shoir va tarjimon, Dunyo Yosh Turk Yozarlar Birligi a'zosi

O'ZBEKISTONGA QUCHOQ OCHGAN QARDOSH O'LKA –

mushtarak ildizlardan yagona
maqsadlar sari



O'zbekiston va Ozarboyjon o'rtasidagi siyosiy, iqtisodiy, ma'naviy-ma'rifiy, adabiy aloqalar yildan yilga, kundan kunga mustahkamlanib, yanada yashnab, chiroy ochib borayotganiga barchamiz guvoh bo'lib turibmiz.

Qayd etish joizki, ikki qardosh millat o'rtasidagi birodarlik, do'stlik rishtalari uzoq o'tmishga borib taqaladi. U asrlar mobaynida bir-biridan kuch olib shakllangan. To'g'ri, qaysidir davrlarda ularning munosabatlariga chang solindi, zo'rama-zo'raki uzoqlashtirildi. Ammo bir-birining diydoriga tashna xalqlar, suhbatlarini sog'ingan yuraklar qayta uchrashishdi. Bugun ham bu ulug'an'ana davom etmoqda va etajakdir ham.

O'tgan yilning aprel oyida Ozarboyjon Milliy ilmlar akademiyasi va Dunyo yosh turk yozarlar birligining tashabbus va taklifi bilan Boku shahrida ikki millat ziyolilari, yozuvchi-shoirilari, adabiyotshunos olimlari ishtirokida tashkil etilgan ilmiy anjumanlar, kitob taqdimotlari, adabiy kechalarda ham bu bot-bot takrorlandi.

Ming shukrki, mamlakatlarimiz tinch, xalqlarimiz buguni va kelajagidan rozi yashamoqda. Bunday o'lkalarga albatta yaxshi kunlar, bayramlar, to'yu tantanalar yarasadi. Ozarboyjonga qilgan 5 kunlik safarimiz ham xuddi bayramday, nihoyatda o'ziga xos va go'zal o'tdi...

"O'zbekiston mana bu yerimizda..."

O'zbekistondan Ozarboyjon sari yo'l olgan uchoq 2 yarim soatdan so'ng davlatu dengiz osha Boku shahrida qad rostlagan Haydar Aliyev nomidagi xalqaro aye-

raportga qo'ndi. Uchoq oynasidan tomosha qilingan go'zalliklar – momiq va oppoq bulutlar, uzun kengliklar, tog'u daryolar hamda moviy dengiz tomoshasidan olgan lazzatimiz so'nib ulgurmay bizni yana bir ajoyib go'zallik qarshi oldi: olomon orasidan bizni axtarayotgan ko'zlar va kutib olishga chiqqan tanish chehralar.

Qardoshlar bilan aka-ukalar kabi ko'rishdik, quyuq so'rashishdik, bir-birimizni bag'rimizga bosdik. Go'yo sog'ingan qalblarimiz taskin topdi, farog'at tuydi. Yo'l charchog'i ham birpasda unutildi. Ularning birinchi aytgan so'zi shunday bo'ldi: "Siz o'zingizni begona o'lkaga keldik deb hisoblamang, Ozarboyjon sizning yurtingiz, o'zbeklar jondoshlarimizdir!"

Qardoshlarimiz uloviga yuklarimizni ortdigu 5 kunlik qo'nimgohimiz – "Yangi Boku" mehmonxonasiga otlandik. Tayyoragoh shahardan chetda bo'lgani uchun safarimiz boshidanoq Bokuni tomosha qilish baxtiga musharraf bo'ldik. Hamrohlarimiz shaharni birma-bir tanishtirishdi: "Mana bu Olimpik futbol stadioni, mana bu yaqinda bunyod etilgan binolar, mana bu olmon muxandislari qurgan yangi aylana ko'priki..."


Boku...

Zamonaviylik va tarixiylik uyg'unlashib ketgan shahar. Har bir bino, har bir ko'cha qurilishiga o'zgacha mehr va e'tibor bilan yondoshilgan. Goh binolar peshtoqi, goh ko'priklar ustunlaridagi bo'rtma naqshlarga ko'zimiz tushar, hayratlarimizni yashirolmasdik.

Mehmonxonaga yetib keldik. Bizni qarshi olgan mehmonxona xodimlari qo'limizdan yuklarimizni olib,



o'z tilida salom berishdi, alik oldik. Keyin negadir, tushunishmaydi deb o'ylashdimi, ruscha gapira boshlashdi. Taassuf bilan bosh chayqadim va ozarboyjonchalab shunday dedim: "Qardosh, biz O'zbekistondan keldik. O'zbekiston ham turkiy o'lkalardan, binobarin, bizning ildizlarimiz bir, tillarimiz ham o'xshash. Ochig'i, shaxsan o'zim ikki turkning ruscha so'zlashishini yoqtirmayman. Siz o'z tilingizda, dona-dona qilib gapiring, bizni esa



diqqat bilan eshiting. Shunday hech qiyinchiliksiz bir-birimizni tushuna olamiz..." Xodimlardan biri o'zbek ekanimizni bilgach ko'zlari chaqnab, mamnun alfozda so'z boshladi: "Ey qardoshim, O'zbekiston bizning jonajon, yaxshi ko'rgan o'lkamiz. Siz va biz degan so'z yo'q, ham-mamimiz birmiz, bizmiz..."

U so'zi davomida o'zbek milliy taomlarini ijtimoiy tarmoqlar orqali ko'rgani, ayniqsa palov yeyishni istashi, shuningdek, o'zbek qo'shiqlarini tinglashini aytdi. Tushunmagan bir-ikki so'zlariga bizdan izoh so'radi. Suhbatimiz ashuladan adabiyotga, adabiyotdan she'rga ulandi.

Ajoyib shaharga kelasiz-u chor devor ichida o'tirib bo'larmidi?! Darrov oyog'imizni qo'lga olib pastga tushdik, ko'cha sari odimladik. Ko'chadan o'tayotgan bir odamdan bu yaqinda do'kon bormi deb so'radik. U darhol qayerdan kelganimni so'radi. O'zbekistondanmiz, dedik. U esa quchoq ochib "Xush kelibsiz qardoshim, qarindoshim, joningiz sog' bo'lsin, nima xizmat bo'lsa aytaveringlar", dedi va do'kon sari erinmay boshlab bordi. Do'konga kirdik. Sotuvchi xuddi o'zimizning xolalarimizga o'xshagan, 50 yoshlardagi bir ayol, boshiga ro'mol o'rgan, yuz-ko'zida o'zgacha samimiyat zohir. Suv olayotgandik, mehmonligimizni bildi va so'radi: "Qayerdan keldingiz?" "O'zbekistondan", javob qaytardik. Ketayotganimizda xayrlashdi: "Xush kelibsiz! Qardoshlarga salom ayting. Yurtingizni yaxshi ko'ramiz..." Keyin qo'lini chap ko'ksiga qo'ydi va gapini yakunladi: "O'zbekiston mana bu yerimizda..."

Adabiyot birlashtirgan qalblar

Safarimizning keyingi kuni rasmiy tadbir va uchrashuvlarga ulandi. Erta tongdanoq Dunyo yosh turk yozarlar birligining rahbari, shoir va jurnalist Intiqom Yashar bir guruh ijodkorlar bilan mehmonxonaga yo'qlab kelishdi. Qo'nimgohimizning birinchi qavatidagi zalda suhbatimiz boshlandi va uning mavzusi o'zbek va ozarboyjon adabiyotidagi o'rtoqlik aloqalari, tarjima masalalaridan iborat bo'ldi.

Uchrashuv chog'i qardosh ijodkorlar Ozarboyjonda o'zbek adabiyoti sevib mutolaa qilinishi, kitoblar chop etilgani, ayni paytda ham o'zbek nasri va she'riyati antalogiyalari tayyorlanayotgani haqida ta'kidlashdi.

Ozarboyjon Milliy ilmlar akademiyasining Markaziy ilmiy kutubxonasida "Ozarboyjon-O'zbekiston adabiy-madaniy aloqalari" mavzusida tashkil etilgan davra suhbatida ham adabiy hamkorligimiz, til masalasi borasida so'z yuritildi. Unda qardosh o'lka va o'zbekistonlik professorlar, olimlar, adabiyotshunoslar, shoir va yozuvchilar, shuningdek, talaba yoshlar qatnashishdi.

Tadbirni akademiya qoshidagi Folkor isstitutuining direktori, akademik Muxtor Imonov ochib, ikki xalqning ziyolalari, adabiyot namoyondalari o'rtasida yaqin birodarlik aloqalari bog'lanishi, xususan mushtarak tadqiqotlar olib borilishi muhim ahamiyatga egaligini qayd etdi.

– Turkiy xalqlarning yaqinlashuvi aynan adabiyotdan boshlangani bejizga emas, chunki adabiyot qalblarni qalblarga hamohang qiladi, – dedi Nizomiy Ganjaviy nomidagi Adabiyot institutining Ozarboyjon-Turkmaniston-O'zbekiston adabiy aloqalar bo'limi mudiri, professor Olmos Ulviy. – Yaqinda institutimiz qoshida Alisher Navoiy nomidagi markaz ochildi. Kelajakda



markaz tashabbuslari bilan Navoiyning barcha asarlari, shu bilan bir qatorda, o'zbek adabiyotida o'ziga xos mavqega ega bo'lgan mumtoz shoirlarning asarlarini ham tarjima qilib, kitobxonlarimizga taqdim etish niyatidamiz. Bugungi uchrashuv ana shunday xayrli ishni bajara oladigan odamlarni bizga bir joyga yig'ib bergani bilan alohida ahamiyatli bo'ldi.

Tadbir yakuni chinakam she'riyat kechasiga aylandi. O'zbekistonda o'zining "O'zbek kelayotir tarix qaridan" she'ri bilan mashhur bo'lgan asli ozarboyjonlik, ko'p yillar davomida O'zbekistonda yashagan shoir va tarjimon Akif Azalp yangi she'rini o'qidi. Qolgan shoirlar mushoirani davom ettirishdi.





Kunning ikkinchi yarmida o'zbek shoiri Chori Avazning yaqinda ozarboyjon tilida nashr qilingan "Yuragingizda yashayman" she'riy kitobining taqdimoti bo'lib o'tdi. Tadbir davomida mana shunday kitoblarning tarjima va chop bo'lishi sohadagi ishlar rivojiga katta turtki berishi ta'kidlandi.

Ichkari shahar va Hazar dengizi. Hayrat ulashgan ikki maskan...

Ozarboyjon... "Kavkaz durdonasi" yoxud "Olovlar yurti" deya ta'rif etiladigan bu o'lka o'zining betakror tabiati, madaniyati, san'ati, qadimiy me'morchilik obidalar bilan butun dunyoga mashhur. Boku uning yuragi. Ma'lumotlarga ko'ra, Bokuda har to'rt faslda ham sayohatchilarni uchratish mumkin. Bizning asosiy sayohatimiz ham aynan poytaxtda kechdi va go'zal taassurotlar bilan yuragimizga muhrlandi. Eng birinchi yo'l olgan joyimiz Ichkari shahar bo'ldi.

Ichkari shahar... Ming yillik tarixga ega ushbu shahar Shirvonshohlar davlati poytaxti hisoblanadi, shuningdek, Yaqin Sharqning eng qadimiy va madaniy markazi ham. Kiraverishda bizni qal'a va Ichkari shahar darvozasi qarshi oldi. Shaharda ko'plab tarixiy obidalar qatori 20 ga yaqin mehmonxona, 100 dan oshiq savdo rastasi faoliyat yuritadi, shuningdek, 1 mingdan ziyod oila istiqomat qiladi. Maydoni 22 gektardan iborat Ichkari shahar hududida yuzlab tarixiy yodgorliklar mavjud bo'lib, 28 tasi davlat darajasidagi, 3 tasi dunyo miqyosidagi ahamiyatga ega.

Tarixiy-me'moriy yodgorlik Boku shahrining Saboil tumanida joylashgan. 1977-yil Ichkari shaharga Tarixiy-me'moriy yodgorlik maqomi berilgan, 1985 yilda esa Davlat tarixiy-me'moriy yodgorligi deb e'lon qilingan. 2000-yilda shahar Qiz qal'asi va Shirvonshohlar saroy majmuasi bilan birga YUNESKOning jahon madaniy merosi ro'yxatiga kiritilgan.

Ichkari shaharning eng diqqatga sazovor joylarini aylanar ekanmiz, haqiqatda tarixan yaqinligimizni his qildik. Bu tuyg'u bizni Qiz qal'asi, Shirvonshohlar saroy majmuasi, Muhammad ibn Abu Bakr masjidi, Imom Usmon Ash-Shirvoniy masjidi, Arxeologik park, Kichik Karvonsaroyini kezzanimizda ham tark etmadi.

Keyingi manzilimiz esa Hazar dengizi... Olis-olis kengliklarga uzangan, ko'zetmas dengiz bizni Ichkari shahardan tushishimiz bilan kutib oldi. Dimog'imizga sho'r ta'm hidi, yuzimizga dengizning qaysar shamoli urildi, bu hol ayrica go'zallik, tarovat, farah bag'ishladi ko'nglimizga. Sohilda qo'tiqlashib, mamnun alfozda sayr qilayotgan yoshlarga, sayohatga kelgan mehmonlarga, mahalliy aholi vakillariga ko'zimiz tushdi.

Sohil bo'ylab biroz vaqt aylandik. Charchaganimizni his qilgach mehmonxona qaytish taraddudiga tushdik. So'ng mehmonxonaga yetib olish uchun ikki o'smir yigitdan yordam so'radik. Ular darrov qayerdan kelganimiz bilan qiziqishdi. O'zbekistonlik ekanimizni bilishgach, bir ism aytishdi: Nodirbek Abdusattarov. Og'zidan gapini olib "Sizlar ham shahmat o'ynasizlarmi?" deya so'radik. "Yo'q, lekin Nodirbekning o'yinlarini ko'ramiz,

xorijlik do'stlarga u bizning o'lkadan, u ham turk deya maqtanamiz", dedi. Ich-ichimizdan faxr tuydik.

Boku. Alisher Navoiy haykali qoshida...

Safarimizning ertasi kuni rasmiy tadbirlar yo'qligi tufayli ixtiyorimiz o'zimizda, yana qadimiy va tarixiy joylarga, ayniqsa, yurtimiz bilan bog'liq maskanga sayr qilishni rejalashtirdik.

Avvaliga qardoshlarimiz bizni shahardan uzoq bo'lmagan "Yonartog'" tabiiy yodgorligiga olib borishdi. Mazkur joy Obsheron yarimoroli, Muhammadiy qishlog'ida joylashgan bo'lib, ko'p asrlar ilgari dengiz sohilida tabiiy gaz chiqishi natijasida vujudga kelgan. Hayratlanarlisi shuki, tepalik yoqasida yonayotgan olov kechayu kunduz, yozu qish o'chmaydi. Ma'lumotlarga ko'ra, u bir necha yuz yillardan beradi yonadi, ba'zan alangasi 10 – 15 metrgacha yetadi. Ilk o'rta asrlar haqidagi ko'plab manbalarda vulqonga qarama-qarshi tomonda uchta tepalik, Bokuning Hazar dengizi qirg'og'ida yonayotgan tuproq va hatto suv borligi haqida qiziqarli ma'lumotlar berilgan, bu joy o'sha davrlarda "Otash-i Bokuan" deb nomlangan. Ehtimol, Ozarboyjon olovlar yurti deya nomlanishi ham aynan mana shu yer bilan bog'liqdir.

Qayd etish joizki, "Yonartog'"ga sayohatimiz yuraklarimizga otash soldi. Xalqlarimiz qalbidagi otash hech qachon so'nmasligini tilab orqaga qaytdik.

Shahar markazida bunyod etilgan Alisher Navoiy haykalini ko'rganimiz ham safar daftarimizga alohida sahifa o'laroq yozildi. Hazrat Navoiy bobomizning haykali Mammad Amin Rasulzoda tumanidagi Alisher Navoiy parkida qad rostlagan. Haykal uzunligi 4 metrdan oshiq bo'lib, u bog'ga o'zgacha salobat, ko'rk bag'ishlab turibdi.

Bog'da kechg'i sayrga kelgan, haykal tevaragidagi o'rindiqlarda kitob o'qiyotgan, quloqchinda qo'shiq tinglayotgan va farzandlarini aylantirishga olib chiqqan odamlarni ko'rdik. Alisher Navoiy haqida qanchalik bilishadi degan o'y bilan bog'da aylanib yurgan Nasiba Vakilovani gapga soldik.

– Alisher Navoiy turkiy millatning faxri, iftixori, – deydi u. – Yaqinda "Xamsa" asari to'lig'icha tilimizga o'g'irilganidan xabar topdim. Ilgari bir qancha g'azallarini o'qiganman, yod olganman. Keyinchalik ishu tashvish bosib kitob o'qishga vaqt ham bo'lmay qoldi. Ammo "Xamsa"ni o'qishni niyat qilganman. Bu bog'ga tez-tez kelamiz, sayr qilamiz, nabiralaringa Alisher Navoiyni tanishtiraman, yodimda qolgan satrlarini o'qiyman. Xalqlarimiz do'stligida adabiyotning, she'riyatning alohida o'rni bor. Istardimki, bu do'stlik hech qachon buzilmasin.



Nasiba opa o'zbekistonlik ekanimizni bilgach sevin-di, bir vaqtlar Samarqandga borgani haqida so'z ochdi. O'zbekistonda kechgan kunlari unutilmas bo'lgani, hozir ham eslab turishi, nabiralari bilan yana bir borishni niyat qilganini ta'kidladi. So'ng yoddan Alisher Navoiy g'azalidan o'qidi.

Bu mehribon buvi timsolida ozarboyjon xalqining o'zbek xalqiga, adabiyotiga yuksak mehr-muhabbatni, ehtiromni ko'rdik. Ana shunday odamlar borligi uchun ham millatlarimiz o'rtasida birodarlik, ishonch ko'priklari mustahkamdir ehtimol, deb o'yladik.

Ozarboyjon safari tugadi, biroq u yerda kechirgan unutilmas lahzalarning zavqu shavqi, lazzati bitmadi. Uyga qaytish chog'ida ham taassurotlarimizni bir-birimizga so'zladik, xalqlarimiz o'rtasidagi bordi-keldi uzilmasligi, oramizdagi mehr-muhabbat hech qachon so'nmasligi, hamisha do'st, yelkadosh, jondosh bo'lib yashashimizni tiladik. Mushtarak ildizlardan yagona maqsadlar sari yo'l olgan ikki qardosh o'lka – O'zbekiston-Ozarboyjon do'stligi abadiy bo'lsin! 🌟